

Date: 19<sup>th</sup> April-2026

”TEMURIYLAR RENESSANSI”

**Musurmonova Hulkar**

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 2-kurs 424-guruh talabasi

"Amir Temur asos solgan saltanat shunchaki qudratli davlat emas, balki bashariyat tafakkurini yangi bosqichga olib chiqqan 'Intellectual markaz' edi."

**Lui Kean**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIV-XV- asrlarda Markaziy Osiyo hududida yuz bergan madaniy va ilmiy yuksalish Temuriylar Renessansining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqolada Amir Temur tomonidan asos solingan markazlashgan davlatning barqarorligi ilm-fan va san'at rivoji uchun qanday fundamental zamin yaratgani tahlil qilinadi. Xususan, Mirzo Ulug'bekning astronomiya maktabi, Alisher Navoiyning adabiy merosi va Kamoliddin Behzodning miniatyura san'ati kabi fenomenlar orqali davrning dunyo sivilizatsiyasiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, maqolada ushbu davr me'morchiligining o'ziga xos sintezi va uning G'arb va Sharq madaniyatlari o'rtasidagi muloqotdagi o'rni ilmiy jihatdan baholanadi. Tadqiqotning maqsadi — Temuriylar davri merosini nafaqat tarixiy fakt, balki zamonaviy ma'naviy taraqqiyotning manbai sifatida ko'rsatib berishdir."

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, renessans bunyodkori, Markaziy Osiyoda sharq renessansi, Temuriylar davri madaniyati, davlatchilikda temuriylar siyosati.

**Kirish.** Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligimiz tarixida insoniyat sivilizatsiyasi va renessansiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan davrdir.

Bugungi kunda Temuriylar merosi mamlakatimiz shonli tarix sahifalarida va yoshlarimizning qalblarida ham o'chmas iz qoldirganligi ma'lum darajada.

O'rta Osiyo hududida ilk sharq renessansi vujudga kelgan. Ikkinchi Sharq renessansi esa albatta Temuriylar davri va davlatchiligi bilan bog'liq. Bunday renessansni Amir Temur o'zining oqilonaligi va adolati shu bilan birga o'zi va zamondoshlarining aql-idroki ila butun sharq dunyosiga tub burilish ikkinchi renessansni bunyod etdi.

Amir Temur o'zining bu davlat boshqaruvi va san'at, me'morchilik va bunyodkorlik ishlarida atrofida turli olim-u fuzalolarni va shayxlarni jalb etdi. Shu o'rinda esa u sezilarli darajada Markaziy Osiyo hududida o'zining Bunyodkor ishlarini amalga oshirdi.

Bu davrda yashab, ijod etgan olim va mutafakkirlar Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy, mashhur tarixchilar Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond va Xondamir, rassomlar Kamoliddin Behzod va shoh Muzaffarlarning



Date: 19<sup>th</sup> April-2026

nomlari dunyoga mashhur bo'lgan. Bu davrda davlatni boshqarishda din va tasavvuf qoidalariga alohida e'tibor berilgan. Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband ta'limotlari ma'naviyat rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ilm-fan rivojlandi, me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Amir Temur Ko'ksaroy masjidi, Shohizinda, Bibixonim madrasasini qurdirdi. Keshda (Shahrisabz) Oqsaroy barpo etildi. Mirzo Ulug'bek davrida Registonda, keyinchalik Buxoro va G'ijduvonda madrasalar, Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bekning falakiyot rasadxonasi qurildi<sup>17</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davri renessansi butun Markaziy Osiyo hududiga kattagina ilmiy xazina ham olib kirdi. Ushbu davrda ilm-fan, adabiyot va san'atni rivojlantirish ham jad'al sur'atlar bilan o'sdi. Bu davrda Ulug'bek maktabi shakllandi va aniq fanlar taraqqiyotida ham katta yutuqlarga erishildi. XIV-XV asrlarda xususan, Amir Temur, Shoxruh va Mirzo Ulug'bek hukmronligida Markaziy Osiyo o'zining taraqqiyot cho'qqisiga chiqdi.

Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Ali

Qushchi kabi olimlarning ilmiy asarlari butun musulmon olamida mashhur bo'ldi.

Gumanitar va ijtimoiy fanlar, shuningdek rassomlik hamda xattotlik san'ati ham yuqori darajaga ko'tarildi. Jomiy, Kamoliddin Behzod, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir kabi mashhur adib, rassom va tarixchilarning nomlari boshqa mamlakatlarda ham keng tarqaldi. Fors tili o'z mavqeiini saqlab qolgan holda, adabiyotda turkiy tilning roli ham sezilarli darajada kuchaydi. Bu davrda turkiy tildagi she'riyat sultoni Alisher Navoiy ijod qilib, o'zining dostonlari, ilmiy va tarixiy asarlari bilan madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi<sup>18</sup>.

Ayniqsa, Temuriylar davrida Samarqandda bunyod etilgan madrasadan bugungi kunda ko'plab yoshlarimiz o'zining ilmiy faoliyatlarini namoyish etishda foydalanatogani mamlakatimizda aql-idrokli yoshlar sonining oshayotgani va Temuriylar davrining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Temuriylar renessansini Alisher Navoiyning o'chmas va go'zal asar va yozgan g'azallari, Ulug'bekning qurgan rasadxonasi va Buyuk Temurning davlatni boshqarishdagi adolat yo'li va o'zining davlat boshqaruviga asos bo'lib kelayotgan "Temur tuzuklari" asari butun sharq dunyosiga ko'tardi.

Temuriylar renessansi ilmiy soha bilan birga huquqiy madaniyat va davlat siyosati va boshqaruvi sohalariga ham eng katta xazinani olib kirgan davr hisoblanadi.

Buni biz o'zbek xalqining buyuk qomusiy olimi, Temuriylar davlatining mashhur hukmdori Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek o'zining boy ilmiy-ma'rifiy merosi hamda mislsiz bunyodkorlik faoliyati bilan yurtimiz taraqqiyoti va jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulkan tarixiy siymodir. U qonunni shunchaki boshqaruv vositasi emas, balki bilimning cheksiz ufqlarini ochib beruvchi imkoniyat deb bilgan. Uning uchun yulduzlar bilan qoplangan falak inson bilimining cheksizligi ramzi edi.

<sup>17</sup> <https://oyina.uz/uz/teahouse/2551>

<sup>18</sup> <https://zenodo.org/records/18930869>



Date: 19<sup>th</sup> April-2026

Ulug‘bekning huquqiy aktlari nafaqat fikr erkinligini, balki ilmiy loyihalarni moddiy qo‘llab-quvvatlashni ham kafolatlagan. Uning Samarqanddagi mashhur rasadxonasi o‘sha davrning daholarini jalb qiladigan markazga aylandi. Bu yerda qonun himoyasi ostida olimlar o‘zlarining kuzatishlari va hisob-kitoblarini olib borishib, koinot sirlarini o‘rganishardi.

Umuman olganda, Mirzo Ulug‘bek avlodlar xotirasida nafaqat hukmdor, balki qonunlari insoniyatga yangi bilim ufqlarini ochishga xizmat qilgan ilm-fan himoyachisi sifatida ham saqlanib qoldi<sup>19</sup>.

Xulosa. Temuriylar renessansi kelajak yo‘limizni yorituvchi merosdir. Markaziy Osiyodagi “Ikkinchi Renessans davri” nafaqat mintaqa tarixida, balki jahon madaniyatida ham chuqur iz qoldirdi. Bu davlatning qudrati nafaqat harbiy qudratda, balki huquq va madaniyat qadrini ko‘ra oladigan hukmdorlarning donoligida ekanligini ko‘rsatdi. Temuriylar tajribasining dolzarbligi shundaki, uning saboqlari har bir inson o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan adolatli va farovon jamiyat qurishda yordam beradi.

Bu esa biz yoshlarning ilm va salohiyat yo‘limizda o‘zining munosib o‘rnini egallaydi va bizni yangi innovatsion kreativ va bunyodkorlikka chorlaydi.

Adolat, insonparvarlik va bilimga intilish tamoyillari biz yoshlarning ham qalbimizni egallaydi va shu o‘rinda Yangi O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti asosini tashkil etadi va “Uchinchi Renessans” yo‘lida yetakchi yulduzdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. <https://oyina.uz/uz/teahouse/2551>
2. <https://zenodo.org/records/18930869>
3. [https://uza.uz/uz/posts/sharq-renessansi-buyuk-mutafakkirlari\\_694021](https://uza.uz/uz/posts/sharq-renessansi-buyuk-mutafakkirlari_694021)
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/sharq-renessansi-davrida-ilm-fan-va-madaniyat-rivoji>
5. <https://staff.tiame.uz/storage/users/414/presentations/UQMtMUsNqBy0QW3WcMzEC CMcLoqbnpomSQMzTiQa.pdf>
6. <https://www.oriens.uz/uz/journal/article/sharq-renessansi-davrida-ilmfan-va-madaniyat-rivoji/>

<sup>19</sup> [https://uza.uz/uz/posts/sharq-renessansi-buyuk-mutafakkirlari\\_694021](https://uza.uz/uz/posts/sharq-renessansi-buyuk-mutafakkirlari_694021)

